UO‘K 811.512.21

ALLITERATSIYA NUTQ OHANGDORLIGINI TA’MINLOVCHI VOSITA SIFATIDA

(Iqbol Mirzo she’rlari misolida)

G.D. Hamraqulova

Maqolada alliteratsiya nutq ohangdorligini ta’minlovchi vosita sifatida ko‘rib chiqilgan. Nutq yaxlit sistem butunlik sifatida struktural birliklardan iborat bo‘lib, ularni fonetik tovushlar tashkil qiladi, tovushlar takrori esa alliteratsiya hodisasini yuzaga chiqaradi. Ijodkor badiiy niyati ifodasida fonetik takrorning o‘rni va alliteratsiyaning poetik nutq jozibadorligini ta’minlashdagi ahamiyati Iqbol Mirzo she’rlari misolida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *poetik nutq, fonetika, fonopoetika, alliteratsiya, emotsionallik, ekspressivlik, geminatsiya, tavtogramma*, *lipogramma.*

В статье рассматривается аллитерация как средство, обеспечивающее мелодичность речи. Речевая система в целом состоит из структурных единиц, которые организуются из фонетических звуков, а повторение звуков создает явление аллитерации. Место фонетического повтора в выражении художественного замысла художника и значение аллитерации в обеспечении привлекательности поэтической речи раскрываются на примере стихов Икбала Мирзы.

Ключевые слова: поэтическая речь, фонетика, фонопоэтика, аллитерация, эмоциональность, экспрессивность, геминация, тавтограмма, липограмма.

Nutqning murakkabligi shundaki, nutqiy jarayonda til birliklari turlicha voqelanadi, nutq ohangdorligini oshirib, jozibadorligini kuchaytirishda turlicha vositalar qo‘llanadi. Nutqning barcha funksional uslublarida qo‘llanuvchi tovushlar takrori turli uslubiy vositalar orqali voqelanadi, buning natijasida nutq shaklan qat’iylashib, ma’lum bir me’yor (marom)ga tushadi. Poetik nutqning jozibadorligida tovushlarning ishtirok etish darajasi, o‘ziga xos tabiatini Iqbol Mirzo she’riyati misolida ko‘rib chiqamiz.

“Hozirgi zamon fani va tajribasida bizni qurshab turgan muhit (ham moddiy, ham ma’naviy) o‘zaro ajralgan alohida-alohida predmet, hodisa, jarayonlardan tashkil topgan emas, balki o‘zaro bog‘langan obyektlar yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, bir butun sistem tuzilmaning ma’lum bir turidir” [1. B. 3]. Til o‘zining umumiyligi, ijtimoiyligi, lingvistik qonuniyatlarga bo‘ysunishi va mohiyat ekanligi bilan nutqqa zidlanadi. Demak, “til birliklari deganda nutqqa zid qo‘yilgan tilning birliklari tushuniladi. Sistema tarkibida funksional qimmatga ega bo‘lgan elementlar til birligi sanaladi” [2. B. 108]. Til va nutq birliklari haqida professor A.Nurmonov quyidagilarni yozadi: “Til birliklari tushunchasi bilan birga lingvistik birlik degan tushuncha ham mavjud. Bu tushuncha til birliklarini ham, nutq birliklarini ham qamrab oladi. Tilning sistemaviylik tabiati shundaki, u sanoqli figuralar, ya’ni birliklarning turli kombinatsiyalari orqali cheksiz axborotlarni uzatish imkoniyatiga ega. Shuning uchun til birliklarining miqdori chegaralangan, barmoq bilan sanarlidir. Imkoniyat tarzidagi bu sanoqli birliklar nutqiy jarayonda xilma-xil shaklda voqelanadi. Til birliklarining nutqiy jarayondagi real ko‘rinishlari nutq birliklari sanaladi” [2. B. 108].

Ko‘rinadiki, nutq ham yaxlit bir sistemadir va u mayda struktural birliklardan tarkib topgan. Ana shu nutqni tashkil qiluvchi mayda struktural birliklar, avvalo, fonetik birliklardir. “Tilning tovush sistemasini turli tomondan o‘rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o‘z tabiatiga va til sistemasida bajaradigan vazifasiga ko‘ra murakkab hodisadir [3. B. 6].

Fonetik takror ma’lum pozitsiya va ma’lum maqsadga ko‘ra ishlatiladi, so‘zlovchi bilan tinglovchi o‘rtasidagi ma’lum aloqa maqsadini ta’minlaydi. “Tovush takrori tushunchasi lingvistikaga dastlab O.Brik tomonidan kiritilgan va u faqat undosh tovushlarga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik bu termin poetik nutqdagi unli va

undosh tovushlarga nisbatan ham qo‘llanadigan bo‘ldi” [4. B. 39].

Professor G‘.Abdurahmonovning ta’kidlashicha, “har bir uslub turini uslubiy bo‘yoq (emotsionallik, ekspressivlik) yaratuvchi vositalar shakllantiradi” [5. B. 22]. Badiiy nutqda muhim funksiya bajaruvchi fonetik-fonologik vositalar fonopoetik birliklarni yuzaga keltiradi.

Nutq jozibadorligi ohang, tovushlar ohangdoshligi, tovushlar mosligi, uyg‘unligi, urg‘u va uning turlari, ma’noga ta’siri, qofiya, ritm, unlining kuchli talaffuzi, unlini cho‘zish, geminatsiya kabilar orqali yuzaga chiqadi.

So‘z san‘atkori o‘z asarini yaratar ekan, bor imkoniyatlardan – leksik, sintaktik va uslubiy vositalardan foydalanib yorqin obraz yaratishga va o‘quvchiga emotsional ta’sir ko‘rsatishga harakat qiladi.

Takrorlar har xil tovushlar kategoriyasidan, shuningdek, unli va undosh tovushlar birlashmasidan ham bo‘lishi mumkin. Agar badiiy matnda bir xil yoki ohangdosh undosh tovushlar takrori ishlatilsa, bu alliteratsiya hodisasi bo‘ladi. Alliteratsiya nutqning ohangdorligini oshiradigan usullardan biri bo‘lib, obrazlilikning yorqinligini oshiradi. Undosh tovushlarning takrori insonning eshitish, ko‘rish, ta‘m bilish, tasavvur qilish va his qilish xususiyatlarini oshiradi. Alliteratsiyaga bog‘langan so‘zlar talaffuzda alohida ohangdorlikni tashkil qiladi, so‘z qancha qisqa bo‘lsa ohangdorlik shuncha kuchli bo‘ladi. Alliteratsiya badiiy nutqdan tashqari tez aytishlarda, reklamalarda, xulosa o‘rnida ham ishlatiladi. Masalan, reklamalarda: ***s**niker**s**, **k**it**k**at, vi**s**ka**s**, **k**ite**k**et, **ch**upa-**ch**ups.*

Alliteratsiya hodisasi haqida gapirganda, yana ikki hodisa haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Birinchisi, tavtogramma. Tavtogramma badiiy uslub bo‘lib, matnda yoki uning biror qismida hamma so‘zlar bir xil tovush bilan boshlanadi yoki bir xil so‘z qo‘llanadi. Tavtogramma qisqa she’rlarda yoki katta badiiy matnlarda ham ishlatilishi mumkin. Tavtogrammani alliteratsiyaning bir ko‘rinishi sifatida bilishadi. Masalan, shoirning quyidagi she’rida “Sening” so‘zi takror ishlatilib, unga yuklangan badiiy-estetik vazifa odatdagidan birmuncha kuchaytirilgan.

Sening ko‘changda ham balki shu ahvol,
Sening buguning ham balki kimsasiz,
Sening ham qalbingda g‘ashlik va malol,
Kecha birga edik. Kecha. Ikkimiz [6. B.145].

Poetik nutqdagi takrorlar so‘z ma’nosini kuchaytirishi, ohang jihatdan ajratilishi, ma’lum so‘zning ma’nosini alohida ta’kidlashi bilan xarakterlanadi. O‘zbek adabiyotida so‘z takroridan ifodaviylikni kuchaytirish maqsadida foydalanish chuqur tarixiy ildizga ega. Mumtoz adabiyotimizdagi “takrir” san’atini shu jihatdan tavtogramma bilan bitta ma’noda tushunish mumkin.

She’riy nutqda bir so‘zni misra, bayt yoki to‘rtlik davomida takror qo‘llash, ushbu so‘zga g‘oyaviy maqsadni yuklash ijodkorning alohida mahoratini, noyob iste’dodini namoyon qiladi. Yoki, aksincha, “matnda bitta so‘zni o‘rinsiz, badiiy-estetik vazifa yuklamagan holda takrorlash salbiy ma’nodagi tavtologiya”ni [7. B. 299], ortiqcha shaklbozlikni yuzaga keltiradi. Iqbol Mirzo “Senga barmog‘imni tegizmayman”, “Ko‘zimga ishonmayman”, “Qiyin bo‘ldi”, “Ming yillab”, “Xotira”, “Sevgi” kabi she’rlarida so‘zni turli xil uslublarda takror qo‘llab, shu yo‘sinda o‘zining g‘oyaviy maqsadini kuchli ifoda etgan.

Ikkinchi hodisa – lipogramma tavtogrammaning teskarisidir. Lipogramma ham badiiy uslub bo‘lib, unda oldindan o‘ylab, atayin biror tovush tushirib qoldiriladi. Lipogramma biror ma’no yukidan holi, shuning uchun oldindan ogohlantirilmagan kitobxon uni sezmasligi ham mumkin. Lipogramma asosan badiiy qobiliyatni o‘stirish va so‘z boyligini ko‘paytirish uchun ishlatiladi.

Badiiy nutqda alliteratsiya muhim bir kompozitsion-ritmik vosita sifatida qo‘llanadi. Alliteratsiya terminini tadqiqotchilar turli ma’noda talqin etadilar. Jumladan, D.E.Rozental, M.A.Telenkovalar alliteratsiyani bir xil undoshlar va tovush birikmalarining takrorlanishi, uslubiy vosita deb bilishadi [8. B. 19], T.Kovalskiy faqat so‘z boshidagi tovushlar ohangdoshligini alliteratsiya deb hisoblaydi [9. B. 142]. Y.D.Polivanovning tahliliga ko‘ra, alliteratsiya qofiya singaridir: har ikki usul ham nutqning aynan bir xil tovush elementlaridan shakllanadi. Ularning farqi shundaki, alliteratsiyada so‘z boshidagi tovushlar uyg‘unlashadi, qofiyada misra so‘ngidagi tovushlar ohangdorlik kasb etadi [10. B. 104]. N.Hotamov, B.Sarimsoqovlar fikricha, “Alliteratsiya fonetik-stilistik usul sifatida poetik nutqning intonatsion ifodaviyligini va ohangdorligini kuchaytiradi. Alliteratsiya unli va undosh tovushlarning mos kelishiga qarab ikki xil bo‘ladi:

a) unli tovushlarning uyg‘unlashuvi, takrori natijasida yuzaga kelgan vokal (assonans) alliteratsiya;

b) undosh tovushlarning uyg‘unlashuviga, takroriga asoslangan konsonant alliteratsiya” [11. B. 26]. Xuddi shunday fikr, ya’ni alliteratsiyani tovushlarning (umuman, har qanday tovushning) uyg‘unlashuvi va takrori sifatida talqin qilish J.Lapasovda ham uchraydi [12. B. 50]. Biroq boshqa ayrim adabiyotlarda alliteratsiya faqat undosh tovushlar takrori deb qaraladi [13. B. 20]. Xususan, akademik A.Hojiyev “alliteratsiya – misralar, undagi so‘zlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qo‘llanishi”, deydi [14. B. 12].

Ko‘rinadiki, alliteratsiya haqida tovushlarning turlari va ularning pozitsiyasi haqida har xil fikrlar mavjud. Ba’zi tilshunos olimlar alliteratsiyani umuman tovushlar va tovush birikmalarining takrori deb tushunsa, boshqalari faqat undoshlarning takrori deb bilishadi. Birlari undosh tovushlarning so‘z boshi pozitsiyasida keladi deb ta’kidlasa, boshqalari umuman so‘z ichida keladi deb ta’riflaydi.

O.Tursunova: “Alliteratsiyaga berilgan ta’riflardan A.I.Sherbakning izohi eng maqbuli desak, xato bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi va A.I.Sherbakning “har qanday boshlang‘ich tovushlar yoki tovushlar guruhining aniq yoki taxminiy ohangdoshligi, shuningdek, unlilar garmoniyasiga asoslangan har bir qator yoki she’riy qatorlardan kelib chiquvchi ma’lum sifatiy belgilarning ohangdoshligi alliteratsiyadir” [4. B. 59], degan fikriga tayanish mumkin, deb alliteratsiyani unli tovushlarga ham bog‘laydi.

Badiiy matnda hamma vaqt tovushlar mosligini kuzatish mumkin, aynan bir xil yoki o‘xshash (d-t, s-z, b-p) undosh tovushlarning qayta-qayta takrorlanishi alliteratsiyani yuzaga keltiradi. Masalan,

Gul**g**un **g**ulchehralar**g**a **g**ulzor munosib,
Nar**g**is qatori senga, ey yor, munosib.
Gulni **g**ulga qo‘shsang, **g**uldasta bo‘l**g**ay,
Dilovar yi**g**itlar**g**a dildor munosib [15. B. 57].

Bu yerda ham shunday fonetik takrorni uchratamiz: “**g”** tovushi 13 o‘rinda, “**g”, “u”** tovushlari mosligi 7 o‘rinda kelishi she’r ta’sir kuchining qat’iylanishi uchun xizmat qiladi.

N.Hotamov va B.Sarimsoqovlarning fikricha, alliteratsiya – she’rda, jumladan, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil tovushlarning takrorlanishidir. Masalan,

Sevdim yurtning shamshodi-yu archa**s**ini,
Suydim **s**oyning **s**okinligi, **s**achrashini.
O‘nta **q**izni **s**evgan bo‘l**s**am, o‘rni bosh**q**a,
Qirqta bo‘lsa **q**ilig‘i xush barchasini!
[15. B. 86].

Yuqoridagi bandda **“s”, “q”** undoshlari takrori musiqiylikni yuzaga keltiradi.

Alliteratsiya nutq mazmunini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Aytib o‘tganimizdek, alliteratsiyada faqatgina bir xil (aynan bitta) tovushlar takrori ham, yana bir-biriga yaqin (b-p, d-t proporsional oppozitsiyada turuvchi) tovushlarning uyg‘unligi ham bo‘lishi mumkin:

Sochlari dengizni **t**oparman,
Olamda **t**engsizni **t**oparman.
O‘zimni yo‘qo**t**sam, yo‘qo**t**ib,
Bir kuni men sizni **t**oparman.

Maysani quchadi yomg‘iri,
Zuhroni o‘padi **T**ohiri.
Men sizga ye**t**arman oxiri,
Bir kuni men sizni **t**oparman.

Falakda yulduzlar **t**opishgay,
Yurakda kunduzlar **t**opishgay.
Intizor bu ko‘zlar **t**opishgay,
Bir kuni men sizni **t**oparman.

Tayindir bir kuni bormog‘im,
Qoshingiz silaydi barmog‘im.
Hilolni kuydirib har ohim,
Bir kuni men sizni toparman [6. B. 33].

Ushbu she’rda 12 o‘rinda “**t”** tovushi takrorlangan. Bu tovushni takrorlash orqali muallif ishonch hissini ta’kidlab ifodalaydi. Bu misolda tavtogramma misraning oxirida kelib (topishgay), so‘z ma‘nosini kuchaytirishga xizmat qilyapti.

G‘amgin yurak, g‘amgusor yurak
Bechorani xo‘rlasang **b**o‘lmas.
Seni **b**ugun ko‘rishim kerak,
Seni **b**ugun ko‘rmasam **b**o‘lmas.

Balki quyosh kular ertaga,
Ochiladi gullar ertaga,
Nima **b**o‘lsa, **b**o‘lar ertaga,
Seni **b**ugun ko‘rmasam **b**o‘lmas [15. B. 2].

She’rning birinchi misrasida **g‘am** so‘zining takrori g‘amning naqadar kuchli ekanligini ifodalaydi, shu so‘zning boshida kelgan “**g‘”** tovushining artikulyatsiyasi chuqur ichkaridan

chiqishi ham g‘amning chuqurligini ifodalashga xizmat qilyapti. Misolda aynan bir xil tovush – “**b”** tovushining uyg‘un takrorlanib kelishi kuzatiladi va ma’lum ohangdorlikni hosil qiladi.

Sizni **d**eya oromim **y**o‘**q**,
Sizni **d**eya uyqum **y**o‘**q**.
Sizni **d**eya quvonchim **y**o‘q,
Sizni **d**eya kulgum **y**o‘q.

Er yigitga bu **q**ayg‘u**d**an
Qayg‘uliroq **q**ayg‘u **y**o‘q,
Kunlarim tun**d**ayin bo‘ldi,
Azobim kun **s**ayin bo‘l**d**i [6. B. 25].

Mazkur misolda **“s”** (5 o‘rinda)**, “d”** (7 o‘rinda)**, “y”** (5 o‘rinda)**, “q”** (3 o‘rinda) tovushlari takrori ko‘riladi. “**S”** tovushining takrori ta’kid ma’nosini kuchaytiryapti, qolgan tovushlar esa ohangdorlikni hosil qilyapti. Keltirilgan misoldagi tavtogramma, ko‘rib turganimizdek, misraning turli (birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi) o‘rinlaridagi so‘zlarni takrorlash natijasida yuzaga chiqyapti va o‘sha so‘zga tushayotgan ma’no urg‘usini kuchaytirib, uni ritmik-intonatsion jihatdan ham ajratib-ta’kidlab ko‘rsatyapti. Demak, bu o‘rinda tovush takrori muayyan mazmunning aniqroq, urg‘ulabroq ifodalanishiga xizmat qilmoqda.

Yo‘g‘-u **b**orimga **b**ois **b**orliqsan, sevgi,
Yagona **yo**rdan **yo**lg‘iz **yo**rliqsan, sevgi.
Yuragimni tars yorgan **l**azzatsan, **l**azzat,
Ongimdagi abadiy og‘riqsan, sevgi.
Kapalak **ch**ang **ch**alganda
sochilgan **ch**angsan,
Chumoli torta kelgan tortiqsan, sevgi
[15. B. 87].

Ushbu she’rning birinchi qatorida “**b”** tovushi, ikkinchi qatorida “**yo”** tovush birikmasi, beshinchi qatorida “**ch”** tovushi takrorlanib kelyapti va ohangdorlikni yuzaga chiqaryapti. “**B”** tovushi orqali borliq, ko‘plik, kenglikni ifodalansa, “**yo**” tovushi orqali yolg‘izlik, “**ch”** tovushi orqali kichik bir zarra ma’nosi yoritilyapti. Ushbu she’rda alliteratsiyadan tashqari, uning bir ko‘rinishi bo‘lgan tavtologiya hodisasi ham mavjud. Uchinchi misrada **lazzat** so‘zi takrorlansa, **sevgi** so‘zi 4 o‘rinda takrorlangan, bu bilan so‘zning ma’nosi kuchaytirilgan.

Nuh to‘foni, demak qismat shamoli,
Kimningdir **k**amoli, **k**imning zavoli.
Sargashta **k**un **k**o‘rding ohu misoli,
Shundan hamon mungli **k**uylaring, o‘zbek.

Bo‘yningdan ketgan yo‘q hali dor izi,
Qo‘y, **q**ora kunlarning o‘chsin **q**orasi!
Sen borsan – Temurning ulug‘ vorisi,
Osmoningga qaytdi oylaring, o‘zbek
[15. B. 10].

Misolda “**k”** tovushi 5 marta, “**q”** tovushi 3 marta takrorlangan. “**K”** tovushi mungli mayinlikni bildirsa, “**q”** tovushi qattiqlikni, qora kunlarni bildiradi. Bu tovushlarning artikulyatsiyasi ham shuni ko‘rsatadi.

Endi faqat **s**abolarni **s**og‘inish bor,
Ela**s**-ela**s** navolarni sog‘inish bor,
Oli**s**-oli**s** ziyolarni **s**og‘inish bor,
Aks o‘zimman **s**adolarga ketolmayman
[15. B. 46].

She’riy misralarda “**s”** bilan “**b”** tovushi, “**n”** bilan “**s”** tovushi, “**z”** bilan “**s”** tovushi uyg‘unlashib kelgan. Ko‘rinadiki, jarangsiz **“s”** tovushi jarangli “**b”, “n”, “z”** tovushlari bilan ohangdorlikni hosil qilyapti. Bu misralarda tavtogrammani hosil qilgan “**sog‘inish bor”** so‘z birikmasi uchta misrada takrorlangan. Bunday takrorlar she’r ohangining vazminligini, fikr aytish erkinligini ta‘minlaydi.

Iqbol Mirzoning “Shimoldan shoshqaloq shamollar kelur” misrasi bilan boshlanuvchi she’rini alliteratsiyaning eng go‘zal namunasi deyish mumkin.

Shimoldan shoshqaloq shamollar kelur,
Halqumga xanjardek hilollar kelur,
Siynadan sirtilgan savollar kelur,
Rahmingiz kelmasmi?

Bu bo‘m-bo‘sh bog‘imga bahorlar kelgay,
Umidlar ufurib, uforlar kelgay,
G‘arib g‘oratlardan g‘uborlar kelgay,
Rahmingiz kelmasmi?

Sochlari soylanib, sanamlar kelsa,
Qayrilma qoshlari qalamlar kelsa,
Azoblar, anduhlar, alamlar kelsa,
Rahmingiz kelmasmi?

Kunlarim kullarga ko‘milib ketmish,
Tunlarim tangadek to‘kilib ketmish,
Sabrning sarposi so‘kilib ketmish,

Rahmingiz kelmasa…
O‘zingiz keling! [6. B. 53].

Tovush yoki so‘zlarni takror qo‘llashda ijodkor mahorati she’rda o‘z isbotini topgan. Butun she’r davomida alliteratsiyaning go‘zal namunasi ko‘zga tashlanadi (she’r shu sababli to‘lig‘icha keltirildi). Misradan misraga, banddan bandga tovushlar takrori ulashib boradi. Ichki qofiya, unli va undoshlarning taqsimoti bandma-band, misrama-misra she’rning talaffuzi, ohangini uyg‘unlashtiradi. Har bir bandning birinchi, ikkinchi, uchinchi misralaridagi so‘zlar bir hil undosh yoki unli tovush bilan boshlanadi. She’r fonetik jihatdan tahlil qilinsa, talaffuzi jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan old qator lablanmagan **“a”** unlisi (65 ta) va **“i”** unlilari (40 ta), ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangli sonor **“l”** undoshi (48 ta), **“m”** undoshi (27 ta), **“r”** tovushi (36 ta) ishtirok etib, misralar ohangida jarangdorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, birinchi to‘rtlikda **“a”** unlisi 16 ta, **“l”** undoshi 15 ta, ikkinchi misrada **“a”** unlisi 15 ta, **“l”** undoshi 9 ta, uchinchi misrada **“a”** unlisi 23 ta, **“l”** undoshi 15 ta, to‘rtinchi misrada “**a”** unlisi 11 ta, **“l”** undoshi 9 ta o‘rinda kelib, misralarning ohangiga nafislik, mayinlik bag‘ishlaydi. She’rning to‘rtliklarida “*Rahmingiz kelmasmi?”* birikmasining takror kelishi, to‘rtlik misralari *“kelur”, “kelgay”, “kelsa”, “ketmish”, “ketsa”* kabi bir o‘zakli so‘zlar bilan yakunlanishi ijodkor ko‘zlagan g‘oyaviy-estetik maqsadni to‘la amalga oshishini ta’minlagan.

Birinchi to‘rtlikning dastlabki uch misrasida ohangi bir-biriga yaqin “sh”, “h”, “s” undoshlari (hammasi jarangsiz, hammasi sirg‘aluvchi) takrorlangani ifodalanayotgan mazmunga muvofiq. Dastlabki uch misraning ritmik qurilishiga e’tibor bering: misra boshidan pasayuvchi sokin ohang misra oxiridagi zarb hisobiga biroz ko‘tariladi, uchta misradagi shu tarz ohang sanash ohangi bilan misralarni bitta ritmik-kompozitsion butunlikka biriktiradi. To‘rtinchi misra esa alohida zarb bilan aytiladi va bandni ritmik butunlikka aylantiradi.

Umumlashtirib aytganda, fonetik takror ham, leksik takror ham badiiy matnda emotsional-ekspressiv vazifa bajara oladi. Biroq kichik birlik sanalgan tovushlarning takrori o‘zidan yuqori bo‘lgan birliklarga nisbatan faolligi va ta’sirdorligi yuqoridir. Ayniqsa, subyektiv munosabatning ixchamlashgan, sodda, lekin o‘ta kuchli ifodasi fonetik takror orqali yuzaga chiqadi. Tahlil qilingan misollar shuni ko‘rsatadiki, alliteratsiyada ma’noni kuchaytirish, ayniqsa, ohangdorlikni yuzaga keltirish uchun jarangli undoshlar ko‘proq ishlatiladi yoki ular o‘zaro uyg‘unlashadi.

Adabiyotlar:

1. *Нурмонов А*. Гап ҳақида синтактик назариялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 99 б.
2. *Нурмонов А*. Танланган асарлар. 3 жилдли. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – 416 b.
3. *Дегтарёв В.И*. Основы общей грамматики. – Ростов: Рост, 1973. – 255 с.
4. *Турсунова О*.Ўзбек тилининг бирликларининг поэтик имкониятлари. Филол.фан. бўйича фал. доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019. – 130 б.
5. *Абдураҳмонов Ғ*. Ёзма нутқ услубини яратувчи воситалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994. – № 3. – Б. 22–32.
6. Mirzo I. Ko‘zlaringga termulsaydim. – Toshkent: Sharq, 2020. – 246 b.
7. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М.* Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 408 b.
8. *Розенталь Д.Э., Теленкова М.А*. Словарь-справочник лингвистических терминов. – Москва: Просвещение, 1976. – 543 с.
9. *Щербак А.М.* Соотношение аллитерации рифмы в тюркской стихосложении // Народы Азии и Африки, 1962. – № 2. – С. 142–153.
10. *Поливанов Е.Д*. О приёме аллитерации в киргизской поэзии в связи с поэтической техникой и языковыми фактами других “алтайских” народностей // Пробломы Восточного стихосложения. Сборник статейа. – Москва, 1973. – С. 100–106.
11. *Хотамов Н., Саримсоқов Б*. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 376.
12. *Лапасов Ж*. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 78 б.
13. Литературный энциклопедический словарь. /Под общ. ред. В.М. Кожевникова, П.А.Николаева. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – 752 с.

14. *Ҳожиев А*. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллии энциклопедияси” Давлат илмии нашриёти, 2002. – 164 б.

15. *Mirzo I.* Sizni kuylayman. – Toshkent: Шарқ, 2007. – 368 б.

16. *Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов. М*. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981. – 224 б.

ALLITERATION IS A TOOL THAT INCREASES THE TONE OF SPEECH
(In the example of Iqbal Mirza’s poems)

Guluzra D. Hamrakulova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 124-130.

[1]Pedagogical Institute of Andijan State University, Andijan, 170100, str., Do’stlik 4. E-mail: andu-pi@edu.uz

Keywords: poetic speech, phonetics, phonopoetics, alliteration, emotionality, expressiveness, gemination, tautogram, lipogram.

This article analyzes the phenomenon of alliteration based on the analysis of a number of factors. At the same time, the different aspects of the opinions expressed by linguists regarding the phenomenon of alliteration are comparatively studied. The previous thoughts and opinions are analyzed on the example of Iqbal Mirza’s poems.

Also, the complexity of the speech, the occurrence of language units in the speech process in a unique way, and the achievement of speech attractiveness by using different means are studied. One of such tools is phonetic repetition, the repetition of certain sounds is used in all types of speech, and the significance of various methodological tools is revealed in the formalization of speech and its standardization. The phenomenon of phonetic repetition in poetic speech, its relationship to a certain reality described by the creator and the expression of its purpose, are examined through a number of examples.

Using the comparative, distributive, and transformational methods of linguistics, the speech appeal of Iqbal Mirza’s poetry, harmony and compatibility of sounds, their harmony, accent and its types, influence on meaning, rhyme, rhythm, strong pronunciation of vowels, The emergence of vowel lengthening, gemination, etc. is covered in detail in the article.

In the poetry of Iqbal Mirza, the reasons for the appearance of attractiveness through phonetic repetition, the fact that phonetic repetition can be from different categories of sounds, and that vowels and consonants and their combination can give poetic speech a tone specific to the intended purpose are studied in different ways. . Also, the influence of harmonic sounds in ensuring the brightness of the image is considered.

The gloss of tones in verses is researched on how another form of alliteration is realized in the poetry of Iqbal Mirza through the use of tautogram or lipogram.

When a general opinion is expressed, whether it is a phonetic repetition or a lexical repetition, it can perform an emotional-expressive task in an artistic text. However, the sounds of a small unit count are more active and effective than the units whose repetition is higher than it. In particular, a condensed, simple, but very powerful expression of the subjective attitude is revealed through phonetic repetition. The analyzed examples show that in alliteration, voiced consonants are used more to strengthen the meaning, especially to create melodiousness, or voiceless consonants are combined with voiced consonants.

References:

1. Nurmonov, A. (1988) *Gap haqida sintaktik nazariyalar* [Syntactic theories about speech]. Tashkent: O‘qituvchi.

2. Nurmonov, A. (2012) *Tanlangan asarlar* [Selected works]. In 3 volumes. Vol. 1. Tashkent: Akademnashr.

3. Degtaryov, V.I. (1973) *Osnovy obshchej grammatiki* [Fundamentals of General Grammar]. Rostov: Rost.

4. Tursunova O. (2019) O‘zbek tilining birliklarining poetik imkoniyatlari [Poetic possibilities of units of the Uzbek language]. Dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences. Tashkent.

5. Abdurahmonov, G‘. (1994) Yozma nutq uslubini yaratuvchi vositalar [Tools that create a style of written speech]. *O‘zbek tili va adabiyoti*. No 3. Pp. 22–32.

6. Mirzo, I. (2020) *Ko‘zlaringga termulsaydim* [I wish I could fall into your eyes]. Tashkent: Sharq.

7. Quronov, D., Mamajonov Z., Sheraliyeva, M. (2013) *Adabiyotshunoslik lug‘ati* [Dictionary of literary studies].Tashkent: Akademnashr.

8. Rozental’, D.Ye., Telenkova, M.A. (1976) *Slovar’-spravochnik lingvisticheskih terminov* [Dictionary-reference book of linguistic terms]. Moscow: Prosveshchenie.

9. Shcherbak, A.M. (1962) Sootnoshenie alliteracii rifmy v tyurskoj stihoslozhenii [Sootnosheniye alliteratsii rhymes v tyurskoy]. *Narody Azii i Afriki*. No 2. Pp. 142-153.

10. Polivanov, Ye.D. (1973) O priyome alliteracii v kirgizskoj poezii v svyazi s poeticheskoj tekhnikoj i yazykovymi faktami drugih “altajskih” narodnostej [On the reception of alliterations in Kyrgyz poetry in connection with the poetic technique and linguistic facts of other “Altai” peoples]. In: *Problomy Vostochnogo stihoslozheniya.* Digest of articles. Pp. 100-106.

11. Xotamov, N., Sarimsoqov, B. (1979) *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati* [Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary terms]. Tashkent: O‘qituvchi.

12. Lapasov, J. (1995) *Badiiy matn va lisoniy tahlil* [Literary text and linguistic analysis]. Tashkent: O‘qituvchi.

13. Kozhevnikova, V.M., Nikolaeva, P.A. (ed.) (1987) *Literaturnyj enciklopedicheskij slovar’* [Literary encyclopedic dictionary]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya.

14.Hojiev A. (2002) *Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati* [An explanatory dictionary of linguistic terms]. Tashkent: “O‘zbekiston millii entsiklopediyasi” Davlat ilmii nashriyoti.

15. Mirzo, I. (2007) *Sizni kuylayman* [I will sing you]. Tashkent: Sharq.

16. Sodiqov, A., Abduazizov, A., Irisqulov, M. (1981) *Tilshunoslikka kirish* [Introduction to Linguistics]. Tashkent: O‘qituvchi.

Muallif haqida ma’lumot:

HAMRAQULOVA Guluzra Dilmuradovna – Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: hguluzra @mail.com.